

GELMINT KASALLIKLARINING TARQALISHDA ITLARNING ROLI

Arziyev Xidir Yuldashovich –TDAU dotsenti, v.f.n. E-mail:

arzievxidir70@mail.ru

Abdulakimov Kamoliddin Ne'mativich – TDAU stajyor o'qituvchi

Worazbaey Janibek Keunimjay uli' – izlanuvchi

Sodiqova Sevinch Muzaffar qizi - TDAU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli, Qonlikul tumanlari va Nukus shahri aholi xonadonlarida itlarning multitseptoz kasalliniga tekshirish tajribalari keltirilgan. Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra ushbu hududda itlarning multitseps qo'zg'atuvchilari bilan zararlannishi 36,9 foizni tashkil qilganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Invazion kasallik, biotik omillar, gelmint, gijjasizlantirish, vodorod bromidli arekolin, antgelmintik, senuroz, multiceptoz eksperimental.

Mavzuning dolzarbligi: Hayvonlar orasida itlar eng birinchi xonakilashtirilgan. Bugungi kunda dunyoda jumladan Respublikamizda ham itlarga alohida e'tibor bilan qarashadi. Itlar inson bilan yonma yon yashaydi. Turmushda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Odamlarni mol mulkini qo'riqlaydi, chorva mollarini boqishda yordamlashadi, ayrim kishilar ishtiyoq tufayli ham uyida it saqlaydi. Itlar odamlarga fjyda keltirish bilan bir qatorda ko'pgina invasion va infeksiyon kasalliklarni insonlarga hamda parvarishlanayotgan hayvonlarga yuqtiruvchi hisoblanadi. Hayvonlarning infeksiyon kasalliklari ulardan olinadigan mahsulotlariga miqdor va sifat jihatdan salbiy ta'sir kursatadi. Infeksiyon kasalliklarga qarshi tuliq veterinariya tadbirlari o'tkazilgan bilan ulardan kuzlangan chorva mahsulotlari olishga erishib bulmayapdi sababi invazion kasalliklar ham katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Invazion kasalliklardan bir necha turdagi hayvonlar orasida kasallik chaqiradigan gelmintlar juda xavfli hisoblanadi. Aynan bir hududda invazion kasalliklarning

sodir bo'lishi uchun kasallikka moyil bo'lgan hayvonlar, kasallikning qo'zg'atuvchisi va uning rivojlanishi, tarqalishi, yuqishi uchun tashqi muhitning biotik va abiotik omillari mavjud bo'lishi kerak. Biotik omillarga kasallikka chalinuvchi organizmlardan tashqari parazitning rivojlanishi, tarqalishi uchun zarur bo'lgan oraliq xo'jayinlar (umumrtqasiz va umurtqali hayvonlar) ham kiradi. Ko'pchilik protozoy kasalliklar va araxnozlar aniq ifodalangan klinik belgilarga ega. Ayrim gelmintozlarda klinik belgilar unchalik aniq ifodalanmaydi. Invazion kasalliklar odatda o'tkir hamda surunkali oqimlarda kechadi. Ularning qaysi oqimda sodir etilishi hayvon organizmidagi parazitlarning miqdoriga, kasallik qo'zg'atuvchisining patogenli xususiyatiga va parazit-xo'jayin o'rtasidagi munosabatlarni qaysi darajada rivojlanishiga bog'liq. Ko'pchilik gelmintozlarda o'tkir oqim parazitlarning yoshlik davrida kuzatadi. Invazion kasalliklar klinik jihatdan to'liq ifodalangan, subklinik ya'ni klinik belgilar kuchsiz ifodalangan, yashirin ya'ni klinik belgilari uncha aniq bo'lmagan shakllarda kechadi. Bularning barchasi kasallangan hayvonlarning soniga (invaziya intensivligi), hayvonlarning individual xususiyatlariga, shu jumladan yoshiga bog'liq. Invazion kasalliklardan qo'ylar orasida asosan senuroz kasalligini tarqatishda asosiy rol o'ynaydigan multitseptoza kasalligini itlar tarqatadi va natijada qo'ychilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltiradi.

M.Aminjonov (2009) ma'lumotlariga qaraganda itlar suruvlardan, ovullardan, qishloqlardan olib kelinib maxsus maydonchadagi temir qoziqlarga mahkam boylanadi va vodorod bromidli arekolin preparati bilan har bir kg tirik vazniga nisbatan 5 mg miqdorida suvli eritma holida og'ziga tilning orqa qismiga yuboriladi. Preparat yuborilgandan keyin 15-20 daqiqadan keyin itlar najas chiqara boshlaydi va gelmint strobilasini tuliq organizmdan tashqariga chiqarib tashlaydi.

Nishmimana Jyjuvenal (1992 y.) Moldova Respublikasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari jarayonida quylar orasida senuroz kasalligi keng tarqalganligiga guvoh bo'ldi. Muallifning dalili bo'yicha, kasallik qo'zilar orasida 2.0 foiz uchraydi.

G. Suleymonova (1997 y.) ma'lumotlariga kura Boshqirdostonda har yili 2852 bosh qo'y senurozga chalinadi va ulardan 47,5 foizi nobud bo'ladi.

O'tgan asrning so'ngi yillariga kelib gelmintozlarga qarshi immunoprofilaktika usuli qo'llash ishlari samara berishi tajribalarda isbotlandi. Dastlab sobiq ittifoq davrida N.Ye.Kosminkov (1986 y.) tomonidan senuroz kasalligiga qarshi vaksina yaratildi. Respublikamizda veterinariya ilmiy tadqiqot instituti olimlari M.A.Aminjonov, B.Hakimov va A.Narzullaev (1991y.) lar tomonidan qo'ylarning senuroz kasalligiga qarshi vaksina ishlab chiqildi va amaliyotga keng qullanildi.

Tadqiqot maqsadi: Itlar orasida multitseptoza kasalligini tarqalishini eksperimental tadqiqotlar asosida o'rganish va gijjasizlantirish tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazishni tashkillashtirish.

Tadqiqot vazifalari: 1 Itlar orasida uchraydigan gelmintlar bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash.

2. Tadqiqot o'tkazilayotgan hududlarda itlarni gijjasizlantirish o'tkazish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotlar Qoraqolpoqiston Respublikasi Xo'jayli, Qonlikul tumanlari va Nukus shahri aholi xonadonlarida saqlanayotgan itlarda, hamda Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti Nukus filiali o'quv laboratoriyasida olib borildi. Itlar orasida uchraydigan gelmintlar bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash uchun tumanlarning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlarida o'tgan yillardagi hisobot ma'lumotlari hisobga olinadi, hamda chorvachilik xo'jaliklarida xizmat kursatayotgan veterinariya xodimlarining kuzatishlari asosida bajariladi. Itlarni gijjasizlantirish uchun M. Aminjonov (1987 y) usulida vodorod bromidli arekolin preparati itlarning har kg tirik og'irligiga 5 mg miqdorida 0,1 foizli suvli eritma holida og'iz orqali yuboriladi. Itlardagi gelmintlarni tuliq organizmdan chiqarib yuborish uchun 20-25 minut oralig'ida ikkinchi marta qayta yuboriladi. Gijjasizlantirish davomida itlardan ajralib chiqqan gelmintlar yig'ib olinib shu joyda yo'qotiladi va zararsizlantiriladi.

Tadqiqot natijalari: Ilmiy tadqiqotlar Qoraqolpoqiston Respublikasi Xo'jayli, Qonlikul tumanlari va Nukus shahri aholi xonadonlarida saqlanayotgan

itlarda olib borildi. Qo'ylar orasida uchraydigan gelmintlar bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash uchun tumanlarning veterinariya va chorvochilikni rivojlantirish bo'limlarida o'tgan yillardagi hisobot ma'lumotlari o'rganilganda keyingi yillarda itlar orasida multitseptoiz umuman qayd etilmaganligi aniqlandi, lekin shu yerda yashaydigan aholi vakillaridan anamnez ma'lumotlari olganimizda hududlarda itlarda multitseptoiz uchrashi tug'risida aytishdi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra Xo'jayli, Qonlikul tumanlari va Nukus shahri aholi xonadonlarida saqlanayotgan itlardan 73 boshi 27 boshida multitsepslar borligi aniqlandi. Qoraqolpoqiston Respublikasida itlar orasida multitseptoiz kasalligiga tekshirish uchun gijjasizlantirish natijalari 1-jadvalda keltirilgan

Qoraqalpog'iston Respublikasida itlarning multitsepslar bilan zararlanishi.

1-jadval

No	Tekshirilgan hudud nomi	Tekshirilgan itlar soni, bosh	Multitseps topilgan itlar soni, bosh	foizi
1.	Qonlikul tumani	23	9	39,1
2.	Xujayli tumani	34	14	41,8
3.	Nukus shahri	16	4	25
	Jami	73	27	36,9

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki Qonlikul tumaniga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 23 bosh itlar tekshirilganda 9 boshida (39,1 foiz), Xujayli tumaniga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 23 bosh itlar tekshirilganda 11 boshida (41,8 foiz), Nukus shahriga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 23 bosh itlar tekshirilganda 4 boshida (25 foiz) multitsepslar borligi aniqlandi. Jami tekshirilgan 73 bosh itlarning 27 boshi, ya'ni 36,9 foizida multitsepslar borligi aniqlandi.

Xulosalar: O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarga asosan shuni aytishimiz mumkin:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida itlar orasida multitseptoza kasalligi qayd etildi.
2. Jami tekshirilgan 73 bosh itlarning 27 boshi, ya'ni 36,9 foizida multitsepslar borligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. М.Аминжанов ва бошқалар “Рекомендации по применению вакцины для профилактики ценуроза овец”. Наставление № 044-3 от 14.11.1991.
2. М.А.Аминжонов., “Ценуроз” Тошкент 2009 й.188-189 бетлар.
3. Н. Жювенал “Ларвалыные тениидозы овец и их профилактика в Республике Молдовии”. Автореф дис. канд. вет. наук М., 1992 г. 10 с.
4. Н.Е.Косминков и др.: “Иммунизации овец против ценуроза” // ж. Ветеринария 1986 № 12 . С. 41-42.
5. Г.Ф. Сулеймонова “Ценуроз и мултитцептоз в Бошкыртостане” Тез.докл.науч. конф. ВОГ. «Актуальные вопросы теоретической и прикладной трематадологии и цестодологии » 1997 С. 149-151.